

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARDA ISHONCHLI VA TA'SIRCHAN  
NUTQ SO'ZLASHNI RIVOJLANTIRISH BOCHQINGLARI

**Burxonova Sarvinoz Azizbek qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU*

*O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 2-kurs magistranti*

*E.pochta: [Burxonovna002@icloud.com](mailto:Burxonovna002@icloud.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada va ona til fta'limida o'quvchilarda ishonchli va ta'sirchan nutq so'zlashni rivojlantirish bosqichlari ishlab chiqildi. Maqolada, shuningdek, bugungi kunda dolzarb muammolardan bo'lgan ona til ta'limida o'quvchilarda ishonchli va ta'sirchan nutq so'zlashni rivojlantirish mazmuni hamda bo'lajak ona tili darslarida o'quvchilarning ishonchli va ta'sirchan nutq so'zlashni rivojlantirish bosqichlarini atroflicha yoritib berish maqsad qilib olindi.*

**Kalit so'zlar:** *ona tili ta'limi, ishonchli va ta'sirchan nutq, nutq so'zlash, nutq so'zlashni rivojlantirish bosqichlari, kommunikativ-kognitiv va kommunikativ-pragmatik metodlar, lingvistik, psixolingvistik, metodik tamoyillar.*

**Annotation;** *This article and the stages of confident and effective speech in students in the language class have been developed. The article also aims to comprehensively cover the content of developing confident and effective speech in students in the language class, which is a pressing problem today, and the stages of developing confident and effective speech in students in native language classes.*

**Keywords:** *mother, tongue education, confident and effective speech, public speaking, stages of public speaking, development, communicative-cognitive and cognitive-pragmatic methods, linguistic, psycholinguistic, methodological principles.*

Inson paydo bo'libdiki, ta'lim-tarbiya, o'rgatish, o'qitish jarayoni mavjuddir, ta'lim paydo bo'lgan vaqtdan beri pedagogik faoliyat uzluksiz davom etib kelmoqda. O'qituvchilik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharaflidir, o'ta mas'uliyatli, qiyin va murakkab kasb hisoblangan. Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimining isloh qilinishi, yangi ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga, ta'lim tizimiga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-martda "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorida ta'lim standartlarining maqsadi sifatida quyidagilarni: 1) gender tenglik va inkluziv ta'lim olish huquqini ta'minlanganligi; 2) ta'lim oluvchiga yo'naltirilganligi va ta'lim oluvchilar shaxsi, ularning intilishlari, qobiliyatlari hamda qiziqishlarini inobatga olinganligi; 3) ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, vatanga fidoyilik va milliy g'urur hissini singdirish hamda o'z majburiyatlarini

mas'uliyat bilan bajarish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish<sup>29</sup>ni nazarda tutadi. Bundan tashqari Respublikamizda ta'lim mazmunini isloh qilish va uni yangi sifat bosqichiga ko'tarish bilan bog'liq jarayonda ona tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish ham dolzarb masalaga aylanib ona tili fanini o'qitish konsepsiyasi, Milliy o'quv dasturi<sup>30</sup> ishlab chiqildi, "Ona tili" darsliklarining yangi nashrlari kommunikativ va kognitiv-pragmatik yondashuvlar asosida yaratila boshlandi.

So'nggi yillarda ona tili ta'limi mazmunini takomillashtirish, o'qitish metodikasini yangi bosqichga olib chiqish, darsliklarni qayta yaratish va til ta'limiga moslashtirish bo'yicha tizimli ilmiy-amaliy ishlar qilindi. Xususan, 2017-yilddan boshlab ona tili ta'limiga yangicha kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi, xalqaro baholash dasturlari, jahonning ilg'or o'qitish metodikalari asosida nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani ta'lim mazmuni va usullarini qayta yaratilishiga sabab bo'lmoqda. Kompetensiya – u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlikdir<sup>31</sup>. Kompetensiya (lotincha "compete" – erishyapman, munosibman, loyiqman) – fan doirasida egallangan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda yuz beradigan amaliy, nazariy va hayotiy masalalarni hal etishda foydalana olishdir. M. Djakbarova o'zining nutqiy ko'nikmalarga oid ilmiy ishida bu atamaning ahamiyatini shunday ifodalagan. "Hozirgi zamon talabiga mos ravishda o'quvchilarga faqatgina ilmiy-nazariy bilimlar berish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlay oladigan shaxs sifatida shakllantirish maqsadida "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalarini har bir darsning asosiy maqsadi va mazmuniga singdirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu atama esa kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir"<sup>32</sup>.

Og'zaki nutqning ikki turi mavjud: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi tabiiy nutq sifatida namoyon bo'lib, sheva ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuv nutqining turli ko'rinishlaridan iborat. Adabiy so'zlashuv nutqi esa adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda gapirishni taqozo etadi. Og'zaki nutqning har ikki turi shaxsning iltimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etsa-da, uning jamiyatda tutgan o'rni adabiy so'zlashuv nutqiga amal qilishida namoyon bo'ladi<sup>33</sup>.

Ona tili fanini o'qitish jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'ni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llashga oid bilimlar, tajribalar o'quvchilarning bilimli va yetuk

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" <http://lex.uz/uz/docs/-6854214> qarorida. 28.03.2024.

<sup>30</sup> 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/6008663> 2022.11.05.

<sup>31</sup> Pedagogik atamalar lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligi T. N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. Toshkent: "Fan", 2008. 62-bet.

<sup>32</sup> Djakbarova M. O'quvchilarda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi: ped.fan.d-ri diss. – Toshkent, 2024. – B. 140.

<sup>33</sup> Djakbarova M. O'quvchilarda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi: ped.fan.d-ri diss. – Toshkent, 2024. 13-bet.

malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. A. Nosirova o'zining "Sahna nutqi" kitobida: "Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi bilan o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi"<sup>34</sup>, – deb ta'riflaydi.

Inetrfaol (ingl. inter – o'zaro , act – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqotda bo'lishni anglatadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning interfaol usullari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalami tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'zni qisman talabalarning faoliyatini darsdan ko'zlangan maqsadga erishishga yo'naltirishga olib keladi<sup>35</sup>. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi natijasida amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga: a) talabalarning dars davomida befarq bo'linaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi; b) talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlari doimiy bo'lishini ta'minlash; v) talabalarning fanga boigan qiziqishlarini har bir masalaga mustaqil ravishda ijodiy yondashgan holda kuchaytirib borish; d) o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishi kiradi.

O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu muayyan ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda aniq bir maqsadga yo'naltirgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan ijodiy pedagogik jarayondir<sup>36</sup>. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl va vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. Natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film yoki tarqatma materiallar kerak bo'lar, yoki o'zi yangi metodlarni o'ylab topishi talab etilar. Shuning uchun ham maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan metodist o'qituvchilar o'z sohalari bo'yicha olib borayotgan mashg'ulotlarida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni, pedagogik mahoratlarni qo'llay olishlari lozim va shartdir.

Nutq texnikasi	Ta'rif	Ta'limdagi ahamiyati
Artikulatsiya	Til, lab, tish va tanglay harakatlari orqali tovushlarni to'g'ri hosil qilish.	So'zlarning aniq talaffuzini shakllantiradi, orfoepiya me'yoriga mos nutq yaratadi.

<sup>34</sup> Nosirova A. Sahna nutqi. "Tafakkur bo'stoni". Toshkent, 2013. 173-b.

<sup>35</sup> Usha manba 174-b.

<sup>36</sup> Nosirova A. Sahna nutqi. "Tafakkur bo'stoni" Toshkent, 2013. 28-bet.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

Vol 2. No 7,

Diksiya	So'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilish.	Nutqning tushunarligini oshiradi, muloqot samaradorligini ta'minlaydi.
Nafas olish	Diafragmal nafas orqali havo oqimini barqaror taqsimlash.	Nutqning ravonligi, uzluksizligi, ta'sirchanligini ta'minlaydi.
Ovoz registrlari	Past, o'rta va yuqori ohanglarda nutqni ifodalash.	Nutqni vaziyatga moslashtirish, auditorigani jalb qilish uchun qo'llaniladi.
Tembr	Ovozning rang-barangligi va individual xususiyati.	Nutqni esda qolarli qiladi, shaxsiy nutq uslubini shakllantiradi.
Nutq tezligi	Gapirish sur'ati va ritmi	Tinglovchining qabul qilish imkoniyatiga moslashadi.
Intonatsiya	Nutqning ohangdorligi, urg'u va pazalar tizimi.	Fikrning mantiqiy bo'linishini ko'rsatadi, tinglovchiga tushunarli va ta'sirchan ma'lumot bera oladi.

A. Nosirovaning yuqorida aytib o'tilgan kitobida nutq texnikasi haqida atroflicha tushuntirishlar, umumiy va muhim jihatlarini sanab o'tgan. Bular: 1) artikulyatsiya; 2) diksiya; 3) nafas; 4) ovoz; 5) orfoepiya. Jonli so'z san'ati, aniqrog'i, oddiy so'zni yuksak badiiyat, nafis san'at darajasiga ko'taruvchi vositalar ovoz, nafas, talaffuz manbalari bo'lgan og'iz bo'shlig'i, lablar, tishlar, til, burn yo'laklari, qaytargichlar (rezonatorlar), tomoq, ovoz paychalari, o'pka havo bo'shliqlari, diafragma pardasi kabi qator tana a'zolaridan iborat. Haqiqiy sahna nutqi san'atini namoyon etuvchi ijrochining har bir a'zosi, xususan, nutq organlari ongli ravishda uning o'ziga bo'ysunadi va zarur bo'lganda, kerakli ton va zaruriy notaga sozlanadi.

Peterburg Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi, Rus teatrining yirik islohatchisi, pedagog K. Stanislavskiyning nutqqa oid shunday fikrlari mavjud: "nutqdan o'zingizgina rohatlanib qolmay... so'z va ohanglarni sezdirmasdan turib, tinglovchining qulog'iga quyib qo'yishingiz kerak". Bu esa o'z navbatida, nutq so'zlovchidan ovoz imkoniyatlarni yaxshi bilishni, uning diapazoni, fazilat va kamchiliklarini o'rganishni talab qiladi.

A. Nosirova o'zining kitobida artikulyatsiya va diksiyaga quyidagicha izoh bergan: "Talaffuz organlari – lab, jag', tilning nutqjarayonidagi turlicha harakatiga artikulyatsiya deyiladi. Artikulyatsion mashqlar, asosan, talaffuz a'zolarining faoliyatini faollashtirish hamda keyingi ish jarayoni bo'lgan nutq tovushlarining aniq talaffuzini ta'minlashni ko'zda tutadi. Shuning uchun bu mashqlarga ehtiyoj har bir o'quvchi va havaskor ijrochining zaruriyatiga aylanishi, ko'p vaqt sarflanmasa ham, muntazam qaytarilib turilishi lozim". Tovushlar va

so'zlarning talaffuz etilishiga diksiya deyiladi. Aniq va ravshan talaffuz yaxshi diksiya, so'zning yamlanishi, ifodaviy noaniqlik kabi salbiy xususiyatli talaffuz esa yomon diksiya deb yuritiladi<sup>37</sup>. Nutq so'zlash jarayonida to'g'ri nafas olish ilmiy jihatdan nutqning sifatini, barqarorligini va ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy fiziologik omil hisoblanadi. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, nutqimizning hajmi va tezligi nafas olishimizga juda bog'liq, bu esa o'z navbatida bizning umumiy sog'lig'imiz va chidamliligimizga aloqador. Inson ovoz qatlamlari nafaqat fonatsiya (tovush chiqarish) vositasi, balki traxeya (nafas yo'li) va o'pkamiz ustida ochiladigan va yopiladigan klapan vazifasini ham bajaradi. Biz nafas chiqarayotganda gapiramiz va nafas olishimiz qancha uzoq bo'lsa, nafas chiqarayotganda shuncha ko'p so'zlarni aniq ayta olamiz. Bundan tashqari, qanchalik chuqur nafas olsak, ovoqimizni shuncha balandroq ifodalay olamiz<sup>38</sup>. O'quvchilarga to'g'ri nafas olishni o'rgatish nutqiy kompetensiyani shakllantirishda muhim. Diafragmal nafas mashqlari, nutqni nafas birliklariga bo'lib o'qish, badiiy matnlarni intonatsiya bilan ifodalash orqali o'quvchilar nutqni barqaror, ta'sirchan va mantiqiy tarzda tuzishni rivojlantiradi.

Ovoz balandligi va kuch darajasining ma'lum bir me'yordagi cheklanuviga registr deyiladi. Inson ovoz manbai hajmi, o'rni va darajasiga ko'ra asosiy registrga bo'linadi.

1. Pastki (ko'krak) registr.
2. O'rta (yuz) registr.
3. Yuqori (bosh) registr.

Pastgi registrda asosan ovoz yo'g'onlashadi, ovoz paychalari eng oxirgi imkoniyatlargacha bo'shashtiriladi yoki kengaytiriladi. O'smir yigitlarda paydo bo'ladigan yo'g'on ovoz aynan pastki registrdan chiqadi. Bu ovoz toni odatda o'quvchilarda jiddiy, rasmiy yo' mantiqiy fikrlarni ifodalashda, ilmiy nutq yoki rasmiy chiqish qilganda yuzaga keladi.

O'rta registr ovozga jarang berishi bilan pastki registrdan farq qiladi. Shu bilan birga bu registr o'quvchining nutqini tabiiy va ravon qilishga xizmat qiladi. Bu ovozdan kundalik suhbatda, o'quv jarayonidagi muloqotda va fikrni oddiy tarzda ifodalashda foydalaniladi.

Yuqori registrning qayragichlari burun usti suyaklari va bosh suyagi bilan odatiy nutq jarayonida boshqa registr'larga nisbatan juda kam qo'llaniladi. Bu ovoz tonini multik qahramonlarida, ba'zi ingichka ovoz egalarida va yosh bola ovoqida kuzatishimiz mumkin. Shu sababli, yuqori registr ovozga emmotsional ohang beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoniga ko'ra 2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur tasdiqlangan<sup>39</sup>. Dasturda o'quvchilarda adabiy til me'yorlariga mos ravon, aniq va ta'sirchan nutqni rivojlantirish vazifasi qo'yilgan. Bu orqali orfoepiya qoidalariga rioya qilish, to'g'ri

<sup>37</sup> Ushbu manba 29-b.

<sup>38</sup> The Interrelationship of Breathing and Speaking Updated on Jun 30, 2022 Mount Sinai Today | Pulmonary Disease, <https://health.mountsinai.org/blog/category/pulmonary-disease/Speech/Pathology/> <https://health.mountsinai.org/blog/category/speech-pathology/>

<sup>39</sup> Xalq ta'limi info. <https://xalqta'liminfo.uz/document-show/47>

talaffuz va intonatsiya ustida ishlash ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida belgilangan. Qo'shimcha tarzda, o'quvchilarning shaxsiy fikrini erkin bayon etishi, dalillar bilan asoslash va bahs-munozaralarda qatnashish ko'nikmalarini shakllantirish dasturda alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu esa nutqning mantiqiyligi va ishonchliligini ta'minlashga yordam beradi.

Milliy dasturda muntazam mutolaa qilish odatini shakllantirish, badiiy va ilmiy adabiyotlar orqali so'z boyligini kengaytirish hamda nutqiy ifodaning uslubiy rang-barangligini oshirish vazifasi belgilangan. O'quvchilarning turli vaziyatlarda nutqni moslashtirish, rasmiy va norasmiy muloqotda to'g'ri ohang va uslubni tanlash ko'nikmalarini shakllantirish dasturda muhim vazifa sifatida qayd etilgan. Milliy o'quv dasturidagi nutqqa oid bandlar til ta'limining fonetik, leksik va uslubiy jihatlarini uyg'unlashtiradi. Bu orqali o'quvchilarda ravon, ta'sirchan va mantiqiy nutq tuzish kompetensiyasi shakllanadi. Shuningdek, dastur nutqni faqat lingvistik ko'nikma sifatida emas, balki ijodiy fikrlash, shaxsiy nuqtayi nazarni ifodalash va ma'naviy-axloqiy tarbiyani mustahkamlash vositasi sifatida ham talqin qiladi.

O'quvchi tilda fikr bildirishni, o'z nuqtayi nazarini ifodalashni, tushunganini tahlil qilishni, savolga javob berishni, mavzu bo'yicha mulohaza yuritishni o'rganishi kerak. Bu esa nutq yaratishda yuqori darajadagi ma'naviy-madaniy kompetensiyalarni shakllantirish talab qiladi. Bu holat ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarida yaxshi shakllanib borayotgan bo'ladi. Yosh nuqtai nazaridan, mustaqil qaror qabul qilishga, kelajak kasbini va yo'nalishini tanlashga yordam beradi. Buning uchun 10-11-sinf o'quvchilarining dars yuklamalarida nutqni rivojlantirishga, o'z fikr va qarorlarini boshqalarga ishonchli, ravon va to'g'ri yetkazishga yordam beradigan o'quv topshiriqlari va vazifalarini ko'paytirishga yo'naltirish kerak. Orfoepiya, imlo va nutq texnikasiga oid mashqlarni muntazam ravishda bajarish orqali o'quvchining nutqiy savodxonligini oshirish mumkin. Shunday qilib, ona tili ta'limida o'quvchilarda ishonchli va ta'sirchan nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishning bugungi holati tubdan yangilangan, amaliyotga yo'naltirilgan va texnologiyalar bilan integratsiyalashgan ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Endilikda o'quvchi bilimi faqat baholash uchun emas, balki hayotiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur jarayon sifatida ko'rilmoqda.

Bugungi kunda til o'zlashtirishda individual yondashuvlar, kontekstual va differensial ta'lim, multimedia va interaktiv usullar, shuningdek, texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til ta'limida o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, ilgari o'zlashtirgan bilimlari va madaniy tajribasi inobatga olinmoqda. Shu bilan birga, til o'zlashtirishda motivatsiya, ijtimoiy muhit, oilaviy va maktab omillari, shuningdek, samarali aralashuv strategiyalari ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan Milliy o'quv dasturi umumiy o'rta ta'limning mazmunini tubdan yangilashga, o'quvchining hayotiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlovchi kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etishga qaratilgan. Dasturda fanning nazariy asoslarini o'rganish bilan birga, ularni amaliyotda qo'llay olish zarurligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Milliy o'quv dasturida ona tili fanidan o'quvchilar quyidagi asosiy kompetensiyalarni egallashi lozim: a) fikrni og'zaki va yozma shaklda ifodalash; b) muloqotga kirishish; v) matn yaratish, uni tahlil qilish; d) til vositalaridan maqsadga muvofiq nutq jarayonida foydalanish; e) axborotni izlash, saralash, baholash va undan foydalanish. Ushbu kompetensiyalar, avvalo, tilni ongli ravishda o'rganishni, so'ngra esa bu bilimlarni nutqiy faoliyatda to'laqonli qo'llay olishni talab qiladi. Bu esa dissertatsiyaviy tadqiqot doirasida ilgari surilayotgan ishonchli va ta'sirchan nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish bosqichlari amalda tatbiq etish zarurligini tasdiqlaydi. Shuningdek, Milliy o'quv dasturida o'quvchining faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini, tanqidiy yondashuvini, ijodiy va muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllanishini ta'minlash asosiy tamoyillardan biri sifatida belgilangan. Bu esa ona tili fanida faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanmay, balki o'quvchining individual nutqiy salohiyatini rivojlantirish jarayoniga ustuvor ahamiyat qaratilishini ko'rsatadi. Umuman olganda, Milliy o'quv dasturi ishonchli va ta'sirchan nutq so'zlash bosqichlarini nazariy va amaliy jihatdan uyg'unlashtirgan holda ona tili ta'limining kompetensiyaviy asosda tashkil etilishini belgilab bergan zamonaviy metodik asosdir. Shu sababli, 11-sinf ona tili darsligini qayta ko'rib chiqish va yangicha metodlar, usullar, nutqni o'stirishga qaratilgan topshiriqlar miqdorini oshirish zarur. Chunki aynan 11-sinf darsligidagi ba'zi eski usuldagi qoidaga asoslangan yondashuvlar va topshiriqlar o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishi va intilishiga teskari bo'lib qolish jarayoni kuzatildi.

Ijtimoiy tarmoqlarda nutq texnikasi va chiroyli ovozga erishish uchun faol notiqlar, teleboshlovchilar, diktorlar tomonidan amaliy maslahatlar berilmoqda va real hayotda ham nutqqa oid turli xil to'garaklar, amaliyotga asoslangan muddatli kurslar orqali yoshlar o'z nutqini va nutqidagi kamchiliklarni bartaraf qilishga intilmoqda. Bularga Rahimboy Jumaniyozov, Jamshid Umirzodov, Islom Qoraboyev, Akrom Abbosov, Hilola Abbosova, Lola Zunnunova va Gulnoza Shavkatovnalarni misol qilib keltirish mumkin. Bu insonlar tomonidan berilayotgan foydali maslahatdan va amaliy mashqlar artilutatsiya, diksiya, ovoz toni va intonatsiyalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonni esa ona tili ta'limida ham qo'llash, sozlarni aniq va ravon aytish, orfografiya va orfoepiya qoidalariga amal qilish hamda shunday topshiriqlar ketma-ketligini ishlab chiqilsa, o'quvchilarda bu malakalarni o'zlashtirish uchun maxsus kurlarga borishga ehtiyoj bo'lmaydi. Bugungi kun esa ona tili ta'limida zamonaviy ilmiy yondashuvlar, texnologik yangiliklar va individual ehtiyojlarga moslashuvchanlik asosida rivojlanib bormoqda. Bu esa tilni o'rganish samaradorligini oshirish, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish, har bir o'quvchi uchun optimal rivojlanish sharoitini yaratish imkonini bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, nutqqa oid so'nggi tadqiqotlar va ularning amaldagi holati, ilmiy jihatlari, ona tili ta'limida samarali nutq yaratishda matnlar bilan ishlash usullari, moslashuvchan o'rganish shakllari, ma'lumotlarga asoslangan shaxsiylashtirish hamda ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu yondashuvlar o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini, samaradorligini va amaliy muloqot qobiliyatini sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" <http://lex.uz//uz/docs/-6854214.28.03.2024>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF–134-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/6008663.2022.11.05>.
3. Pedagogik atamalar lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligi T. N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. Toshkent: "Fan", 2008. 62-bet.
4. Djakbarova M. O'quvchilarda og'zaki nutq ko'nimalarini rivojlantirish metodikasi: ped.fan.d-ri diss. – Toshkent, 2024. – B. 140.
5. Nosirova A. Sahna nutqi. "Tafakkur bo'stoni". Toshkent, 2013. 173 b.
6. The Interrelationship of Breathing and Speaking Updated on Jun 30, 2022 Mount Sinai Today | Pulmonary Disease, <https://health.mountsinai.org/blog/category/pulmonary-disease/Speech/Pathology/> <https://health.mountsinai.org/blog/category/speech-pathology>
7. Xalq ta'limi info. <https://xalqtaLiminfo.uz/document-show/47>.
8. Tursunay Yusupova. Проблема подготовки обучающихся к текстообразительной деятельности путем выполнения грамматических заданий // 2025 Vol. 1 (5) "Ozbekiston: til va madaniyat. Metodika" jurnali, 2025.